



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Lekin bu abadiy emas. Davr o'tishi bilan bu o'z xususiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo shu nom qo'yilgan davr kishilari uchun juda ahamiyatli. Chunki nomda xalqning madaniyati, turmush-tarzi, urf-odatlar, tiliga oid muhim jihatlar o'z aksini topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim ruslashgan nomlar o'zbekcha nomlar bilan o'zgartirildi. Demak, xalqning madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida toponimika alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fanni rivojlantirish tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining taraqqiy etishiga ham zamin bo'ladi. Biz ham bu maqolamizda toponimikaning fanlar orasidagi muhim soha ekanligini e'tirof etishni maqsad qildik. Chunki bu soha tilning lingvokulturologik jihatini ko'rsatuvchi muhim manbalar jamlanmasi desak xato qilmaymiz. Tildagi bu tizim rivojlantirish orqali ona tilimiz rivojiga hissa qo'shamiz. Shu orqali tilimizga bo'lgan hurmatimizni izhor etamiz. Davlatimiz rahbari aytganlaridek: *"Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi"*.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2024/10/21/til-har-qanday-xalq-uchun-hassos-va-tasirchan-masala-shavkat-mirziyoyev>
2. Hasanov H. Yer tili. – Toshkent, 1977. – 4 -b.
3. Малитский Н.Г. Ташкентская махалля. – Ташкент, 2020.
4. Q. Hakimov. Toponimika. – Toshkent, 2016.
5. S. Qorayev. Toponimika. – Namangan, 2010. -18 -b.
6. Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Fargona, 2018. – 10 -b.
7. Navro'zov. Xarbiy topografiya. – Toshkent, 2015. – 4 -b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/OTTH6981

O'ZBEK VA RUS TILLARI MUROJAAT VOSITALARI TADQIQIGA DOIR

Shirinova Yekaterina Turakulovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

yekaterina@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9164-5327

Annotatsiya

Murojaat vositalari eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, ular bizga suhbatdoshlarimizning e'tiborini jalb qilish, fikrlarimizni, his-tuyg'ularimizni ifoda etish va o'zaro munosabatga kirishishda yordam beradi. Muloqot jarayonida murojaat vositalari muhim o'rin tutadi. Murojaat vositalari deganda, biz suhbatdoshga yoki auditoriyaga yo'naltirilgan, ularning e'tiborini jalb qilish, hurmatini ko'rsatish, ijtimoiy maqomini belgilash kabi vazifalarni bajaruvchi verbal va noverbal vositalarni tushunamiz. Ushbu maqolada tilshunoslikda murojaat vositalarining o'rganilganlik darajasiga e'tibor qaratiladi hamda



o'zbek va rus tillari murojaat vositalari antroposentrik tadqiqining dolzarbligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: murojaat vositalari, tilshunoslik, verbal, noverbal, til birliklari, kommunikatsiya, muloqot, sotsiolingvistika, pragmatika, nutqiy etiket, undalma, madaniyatlararo kommunikatsiya ...

Аннотация

Речь является одним из важнейших средств общения, помогая нам привлекать внимание собеседников, выражать свои мысли, чувства и вступать во взаимодействие. Средства коммуникации играют важную роль в процессе коммуникации. Под средствами обращения мы подразумеваем вербальные и невербальные средства, направленные на собеседника или аудиторию, выполняющие такие функции, как привлечение их внимания, проявление уважения и установление социального статуса. В данной статье рассматривается уровень изученности средств обращения в языкознании, а также обсуждается актуальность антропоцентрического изучения средств обращения в узбекском и русском языках.

Ключевые слова: средства обращения, лингвистика, вербальные, невербальные, языковые единицы, коммуникация, диалог, социолингвистика, прагматика, речевой этикет, обращение, межкультурная коммуникация...

Abstract

Speech is one of the most important means of communication, helping us to attract the attention of interlocutors, express our thoughts, feelings and interact. Communication tools play an important role in the communication process. By means of address we mean verbal and non-verbal means aimed at the interlocutor or audience, performing such functions as attracting their attention, showing respect and establishing social status. This article examines the level of study of means of address in linguistics, and discusses the relevance of anthropocentric study of means of address in the Uzbek and Russian languages.

Keywords: means of address, linguistics, verbal, non-verbal, language units, communication, dialogue, sociolinguistics, pragmatics, speech etiquette, address, intercultural communication...

Dunyo tilshunosligida antroposentrik yondashuv zamirida yuzaga kelgan integrativ fanlar: lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika doirasida insonlararo kommunikatsiya jarayonlari muhim tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Mazkur jarayonda eng muhim kommunikativ-pragmatik yuk murojaat vositalari zimmasiga tushadi. Tilshunos olimlar P.Braun va S.Levinsonlar mazkur muloqot jarayonining tashkil etuvchilariga shunday ta'rif beradilar: "Murojaat vositalari deganda, nutqda tinglovchiga yoki suhbatdoshga nisbatan qo'llanadigan, uning e'tiborini jalb qilish, hurmatini bildirish yoki munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan til birliklari tushuniladi (P.Braun, S.Levinson, 1987).

O'zbek tilining izohli lug'atida "murojaat" so'zining ta'rifi quyidagicha berilgan:

- ko'rib chiqish, taqqoslash;

- biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish;

- birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq [O'zbek tilining izohli lugati 2006, 645]. Tilshunoslikda olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida yuqorida keltirilgan ta'rifning asosan oxirgi bandida nazarda turilgan jihatga urg'u berilgan va aynan shu band insonlararo muloqot jarayonida namoyon



bo'ladi. Murojaatlar tilshunoslikning sintaksis bo'limida undalma nomi ostida tadqiq qilingan va bunday tadqiqotlar ushbu sohadagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Undalma bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan A.Sayfullayev undalmaning leksik-semantik xususiyatlari, gapdagi o'rni va uning tarkibini yoritib bergan. Ba'zi tilshunoslar undash, chaqiriq ma'nolarini qamrab olgan so'zlarni vokativ formadagi so'zlar deb izohlaydilar. Masalan, B.O'rinboyev undalma termini o'rnida "vokativ kategoriya" terminini qo'llaydi. Undalma o'zbek tilshunosligida ko'proq sof lingvistik tomondan tahlil qilingan bo'lib, keyingi yillardagi tadqiqotlarda esa undalmaning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlariga ham e'tibor kuchaydi. Ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, ko'pgina ishlarda "undalma" termini o'rnida "murojaat shakllari" termini qo'llanmoqda. Mustaqillik yillarida "murojaat" termini faol qo'llanib, u ko'proq sotsiolingvistikaning o'rganish obyekti tashkil qiladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari termini undalma terminiga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi. Biz esa murojaat vositalari terminini qo'llashni joiz topdik, chunki mazkur termin verbal va noverbal murojaat vositalarini qamrab oladi. Undalma eng asosiy ifoda shakllaridan biri bo'lib, murojaat vositalarining verbal ko'rinishidir, chunki sintaktik strukturalarda til birliklari undalma sifatida ishtirok etadi. Tilshunoslikda murojaat vositalariga berilgan ta'riflardan hamda shaxsiy kuzatuv va tajribalarimizdan kelib chiqib, murojaat vositalariga quyidagi mualliflik ta'rifini beramiz:

Murojaat vositalari subyektning obyektga (tinglovchiga yoki suhbatdoshga, ba'zan esa, hatto, jonsiz narsalarga, mavhum tushunchalarga) nisbatan qo'llanadigan, uning e'tiborini jalb qilish, unga nisbatan hurmat yoki hurmatsizlik hislarini bildirish (munosabatini ifodalash, bunda jonli obyektlar nazarda tutiladi) uchun xizmat qiladigan verbal va noverbal vositalardir.

Murojaat vositalarini dastlab ikki yirik guruhga ajratib olish maqsadga muvofiq, bular: verbal va noverbal murojaat vositalari.

Verbal murojaat vositalari e'tiborni jalb qilish, munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan til birliklari bo'lib, ularning turli til sathlari kesimida turlarga ajratish mumkin (yuqorida qayd qilib o'tganimizdek aynan verbal vositalar undalma sifatida ajratib ko'rsatilishi mumkin).

Noverbal murojaat vositalari esa xuddi shu maqsadni ifodalaydigan kinesika (tana tili): mimika (yuz ifodalari, imo-ishoralar, nigoh), jestika (qo'l harakatlari) hamda takesika (teginish), proksemika (suhbatdoshlar orasidagi masofa) vositalaridir.

Murojaat vositalari turli tillarda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Murojaat vositalarining tanlanishi madaniy omillarga ham bog'liqdir. Masalan, ba'zi madaniyatlarda yoshi kattalarga ismlari bilan murojaat qilish odobsizlik hisoblansa, boshqa madaniyatlarda bu normal holat ekanligi A.Vejbitskayaning asarlarida ham qayd qilingan. Qoaversa, ayrim tillarda verbal murojaat vositalari, ayrimlarida esa noverbal murojaat vositalari faolroq qo'llanishi mumkin.



Murojaat vositalari tilshunoslikda uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinmoqda. Ushbu sohadagi muhim tadqiqotlardan biri P.Braun va S.Levinsonning "Politeness: Some universals in language usage (Xushmuomalalik: tildan foydalanishdagi ayrim universalialar)" (1987) asaridir. Ushbu asarda mualliflar murojaat vositalarining universalligi va madaniy xususiyatlarini o'rganadilar va "yuzni saqlash" nazariyasini ilgari suradilar. Ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar kommunikatsiya jarayonida o'zlarining va boshqalarning "yuzini" (hurmatini, izzatini) saqlashga harakat qiladilar va murojaat vositalari bu maqsadga erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, murojaat vositalari sotsiolingvistika, pragmatika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistlar murojaat vositalarining ijtimoiy omillar (yosh, jins, ijtimoiy tabaqa) bilan bog'liqligini o'rganadilar (Holmes, 2001). Pragmatiklar murojaat vositalarining nutqiy aktlardagi rolini va ularning ma'nosini tahlil qiladilar (Lich, 1983). Madaniyatlararo kommunikatsiya mutaxassislari turli madaniyatlarda murojaat vositalarining qanday farq qilishini va bu farqlar kommunikatsiya jarayoniga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar (Gudikanst, Ting-Tumey, 1988).

Rus tilshunosligida murojaat vositalari ancha chuqur o'rganilgan. Bu sohada V.V.Vinogradov, Y.S.Stepanov, N.I.Formanovskaya, V.Y.Zaxarova, L.I.Shatalova, L.P.Rijova³⁴ kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. V.V. Vinogradovning "Rus tili grammatikasi" (1954) asarida murojaat shakllarining grammatik kategoriyalari tahlil qilingan. Y.S.Stepanov o'zining "Rus tili semiotikasi" (1971) kitobida murojaatning madaniy va ijtimoiy ma'nolarini ochib bergan. N.I.Formanovskaya esa "Nutqiy muloqot: pragmatika va grammatika" (1998) asarida murojaatning pragmatik funksiyalarini ko'rib chiqqan.

O'zbek tilshunosligida murojaat shakllarini o'rganish nisbatan yaqinroq tarixga ega³⁵. Biroq, so'nggi yillarda ushbu mavzuga qiziqish sezilarli darajada oshdi. O'zbek tilidagi murojaat shakllari asosan pragmatika, sotsiolingvistika va nutq madaniyati nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. Xususan, o'zbek

³⁴ Захарова В.Е. О функциях и структуре начального обращения в частных письмах А.П.Чехова // Языковое мастерство А.П.Чехова. Ростов, 1988. – С.110-115; Шаталова Л.И. Формы и функции обращений в современном русском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. Минск, 1979. - 24 с; Рыжова Л.П. Коммуникативные особенности обращения // Содержательные аспекты предложения и текста. - Калинин, 1983. Рыжова Л.П. Коммуникативные функции обращения // Семантика и прагматика синтаксических единств. - Калинин, 1981;. Рыжова Л.П. Обращение: нормы и правила потребления // Прагматика и семантика синтаксических единиц. - Калинин, 1984.

³⁵ Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Самарқанд, 1993; Рахматуллаева Б. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лосоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри дисс. ...автореф. – Тошкент, 2000; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лосоний тадқиқи: Филол.фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007.



tilshunosligida E.Begmatov, B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, Sh.Safarov, Sh.M.Iskandarova, S.M.Mo'minov, N.Mahmudov, R.Rasulov, D.M.Teshaboyeva, A.J.Omonturdiyev, A.Aripova, Z.A.Akbarova, N.Ahmedova, Sh.Sodiqova, D.D.Pulatova singari olimlar ushbu soha tadqiqi bilan shug'ullanganlar.

O'zbek va boshqa tillardagi murojaat vositalarining qiyosiy tahlili bo'yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Xususan, M.Aliqulova o'zbek va ingliz tillarida murojaat shakllarining chog'ishtirma tahlilini, Kaxarov K. O'zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqini amalga oshirganlar. Qiyosiy tahlilga oid tadqiqotlar :rasida, odatda, o'zbek tilidagi murojaat shakllarining boshqa tildagi ekvivalentlari, ularning ma'no va uslubiy xususiyatlari solishtiriladi. Shuningdek, turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanadigan murojaat shakllarining farqlari ham o'rganiladi.

O'zbekistonda turli millat vakillari istiqomat qiladi va rus tili hali ham muhim kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Shuning uchun, o'zbek va rus tillaridagi murojaat vositalarining farqlarini bilish, madaniyatlararo muloqotni samaraliroq qilishga yordam beradi. Ayniqsa, o'zbek va rus tillaridagi murojaat vositalarining antroposentrik tadqiqini amalga oshirish, mazkur muloqot vositalarini lingvopragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik, sotsiolingvistik aspektlarda chog'ishtirma-tadqiqini amalga oshirish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi va buni quyidagi omillar bilan asoslash mumkin:

1. Sotsiolingvistik omil: O'zbekistonda ijtimoiy o'zgarishlar tufayli tilga bo'lgan munosabat ham o'zgarmoqda. Murojaat vositalari jamiyatdagi ijtimoiy maqom, yosh, jins kabi omillarga bog'liq holda qo'llanadi. Shuning uchun, zamonaviy o'zbek jamiyatida o'zbek va rus tillari murojaat vositalarining qo'llanishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

2. Madaniy omil: o'zbek va rus tillari o'rtasida madaniy farqlar mavjud. Masalan, o'zbek tilida "siz"lash odobi rus tiliga qaraganda kuchliroq. Bu farqlar muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Qiyosiy tadqiqotlar bu farqlarni aniqlashga va madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga yordam beradi.

3. Pragmatik omil: murojaat vositalari nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan murojaat vositasi suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish, hurmatini qozonish va muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun, murojaat vositalarining pragmatik funksiyalarini o'rganish muhimdir.

4. Ta'limiy omil: O'zbekistonda rus tilini o'rganuvchilar uchun murojaat vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini bilish muhim. Bu ularga rus tilida to'g'ri muloqot qilishga va madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. Shuningdek, o'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklar uchun ham bu ma'lumotlar foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va rus tillarida murojaat vositalarining antroposentrik-chog'ishtirma tadqiqi tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. O'zbek va rus tillaridagi murojaat vositalarining qiyosiy tahlili madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga, til o'rganuvchilarga yordam berishga va tilshunoslik nazariyasini boyitishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan ushbu sohada



kompleks tadqiqotlar olib borish, murojaat vositalarining sotsiolingvistik, lingvomadaniy, psixolingvistik va pragmatik jihatlarini chuqur o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: филол.фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007.
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -Toshkent, 2008.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press. 1987// Politeness: Some Universals in Language Usage | Penelope Brown, Stephen C. Levinson, John J. Gumperz | download on Z-Library
4. Gudykunst, W. B., & Ting-Toomey, S. Culture and interpersonal communication. 1988. // Culture and Interpersonal Communication - William B. Gudykunst, Stella Ting-Toomey - Google Книги.
5. Holmes, J. An introduction to sociolinguistics. 2001// An Introduction to Sociolinguistics.
6. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Самарқанд, 1993.
7. Muxamedova S.X., Shirinova Y.T. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga :r. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 2024, 1(01), 3–6. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/96>
8. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фанлари д-ри дисс. ...автореф. – Тошкент, 2000.
9. Pulatova D. D. O'zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi. Fil.f.b...diss.avtoref. – Toshkent, 2024.
10. Рахматуллаева Б. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992.
11. Рыжова Л.П. Коммуникативные особенности обращения // Содержательные аспекты предложения и текста. - Калинин, 1983.
12. Рыжова Л.П. Коммуникативные функции обращения // Семантика и прагматика синтаксических единств. - Калинин, 1981.
13. Рыжова Л.П. Обращение: нормы и правила потребления // Прагматика и семантика синтаксических единиц. - Калинин, 1984.
14. Захарова В.Е. О функциях и структуре начального обращения в частных письмах А.П.Чехова // Языковое мастерство А.П.Чехова. Ростов, 1988.
15. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972.
16. Шаталова Л.И. Формы и функции обращений в современном русском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. Минск, 1979. - 24 с.
17. Wierzbicka, A. (2003). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction (2nd ed.). Mouton de Gruyter. 540 p. Cross-cultural pragmatics by Anna Wierzbicka | Open Library
18. Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson – madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. :: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>
19. Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. (в формате PDF) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ (researchgate.net)



20. Ширинава, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> :: <https://www.::org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>

21. Shirinova, Y. (2024). НЕКОТОРЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПОДХОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В МНОГОЯЗЫЧНОЙ И ПОЛИКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(01). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/110>

22. Shirinova, Y. (2024). КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

23. Tuychieva M. U. (2023). Pedagogical, methodological and psychological aspects of attracting teenagers to fiction. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(11), 28-39.

24. Tuychieva M. U. (2025). Research on logical thinking in literary education. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 5(3), 27-33.

25. Tuychieva M. (2025). The importance of age-specific characteristics in the process of guiding thinking in literary education. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 5(4), 18-22.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/BWOB8745

QARAQALPAQ DİLİNDƏ KONSONATLARIN (SAMİTLƏRİN) İŞLƏNMƏSİ

Aynur Cəfərova

Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti

Türkoloji mərkəzin türk dilləri bölməsinin mütəxəssisi

ceferova1987@internet.ru

Orcid: 0009-0000-2034-186

Annotasiya

Qədim Türk xalqlarından biridə Qaraqalpaq türkləri olmuşdur. Qaraqalpaq dilli türk dillər ailəsinin qıpçaq yarımqrupuna daxil olub, Qaraqalpaqstan Muxtar Respublikasının rəsmi dövlət dili olmuşdur. Qaraqalpaq dilində təxminən 400 min nəfər danışır. Onlar əsasən Özbəkistanda yaşayırlar. Bu dil noqay, qazax və qaraçay dilləri ilə birgə qıpçaq-noqay qoluna aid edilir. Leksik baxımdan daha çox qazax dilinə yaxın olsada orfoqrafik cəhətdən onlardan fərqlənir. Ümumiyyətlə bütün türk dilləri qədim türk dillərinin dil xüsusiyyətlərini fonetik , leksik, morfoloji və sintaktik quruluşunu özündə qoruyub saxlamışdır. Qaraqalpaq yazı dili Qaraqalpaqstanın qurulması (1925) ilə başlayır. Danışq dili isə qazax və qırğız dillərinə çox yaxındır. Qaraqalpaqlar 1924-1928-ci illərdə ərəb əlifbasından istifadə etmişlər. 1928 – ci ildə isə Latın qrafikalı əlifba əsasında qaraqalpaq əlifbası düzəldilib qəbul edilmişdir. Qaraqalpaq əlifbası 9 sait və 23 samit olmaqla 32 hərfdən ibarət olmuşdur. Sonradan 1932 –ci ildə rusların təsiri ilə kiril əlifbasına keçmişlər. 1996 –cı ildən yenidən latın əsaslı Qaraqalpaq əlifbası qəbul edilmişdir. Azərbaycanca türkcəsində olduğu kimi Qaraqalpaq türkcəsində də 23 samit var və bu samitlərin yaranması tələffüz zamanı hava axının ağız boşluğunda müxtəlif manelər rast gəlir bunların bəzisi sadəcə küy , bəziləri isə küy və avaz əsasında formalaşır. Qaraqalpaq dilindəki samitlər işlənməsinə nəzər yetirdikdə görürük ki, türk dillərinin fonetikasına daxil olan konsonatların (samitlərin) sinifləndirilməsində tam bir birlik yoxdur. Bunun səbəbi isə odur ki, indiyə qədərki fonetik laboratoriyaların verdikləri ilə



Zhumagali İBRAGİMOV. KAZAK TÜRKCESİNİN TÜRKİSTAN AĞZINDA EDATLAR	245
Зульфия Ишкильдина, Светлана Косцова. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА СЛОВА В РУССКОМ И БАШКИРСКОМ ЯЗЫКАХ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ	251
Ahmedova Shaxnozaxon. TOPONIMIKA FANI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	256
Shirnova Yekaterina Turakulovna. O'ZBEK VA RUS TILLARI MUROJAAT VOSITALARI TADQIQIGA DOIR	261
Aynur Cəfərova. QARAQALPAQ DİLİNDƏ KONSONATLARIN (SAMİTLƏRİN) İŞLƏNMƏSİ	267
IV SHU'BA. TURKIY XALQLARNING UMUMIY MADANIY MEROSI	
Аминев Закирьян Галимьянович. ОБ АРХАИЧЕСКИХ БАШКИРСКИХ ЭПОСАХ «УРАЛ БАТЫР» И «АКБУЗАТ»	275
Турганбаев Нурмамат Орозович. БАЙЫРКЫ ТАШ ЖАЗМА ЭСТЕЛИКТЕРДЕГИ ОРТОК СӨЗДӨР	278
Адилбекова Эльмира Сейтимовна, Емре Гүлже. TÜRK ANLATI GELENEĞİNDEKİ GÖLGE OYUNLARI: KARAGÖZ	286
Turgay AKDURUŞ. RENKLERİN SİYASİ VE TOPLUMSAL OLAYLARDA KULLANIMI	295
Filiz GÜVEN, Zeynep AVCI. İŞLEVSEL TİPTEN BELLEKSEL TEMSİLE: EMİR TİMUR'UN TÜRKİYE SAHASINDAKİ HALK ANLATILARINDA TİPOLOJİK DÖNÜŞÜMÜ	303
Камалова Гульдар Рашитовна, Шакурова Шаура Рашитовна. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ И ВКЛАД ВЫДАЮЩЕГОСЯ УЧЕНОГО-ТЮРКОЛОГА РАШИТА ШАКУРОВА В ГУМАНИТАРНУЮ НАУКУ	312
Алиева Ляззат Бердуақасқызы, Ұлас Жанниет. TÜRK MODERNLEŞMESİNİN TAŞIYICI GÜCÜ: HALK TİYATROSU	322
Əhmədova Səbirə Şövqi qızı. SƏMƏRQƏND ŞƏHƏRİNİN TARİXİ MEMARLIQ ABİDƏLƏRİ	328
Fatimə Salmanova. AZƏRBAYCAN MUĞAMI	334
Sobirova E'zoza G'ayrat qizi. TURKIY XALQLARNING MILLIY QADRIYATLARINI TALQIN ETISH	339
Ayan Əlizadə. QƏRBİ AZƏRBAYCAN BÖLGƏSİNİN ZƏNGİN MƏTBƏXİ	341
Həsənova Ülkər Fikrət. TARİX DƏRSLƏRİNDƏ AKMEOLOJİ SƏRİŞTƏNİN FORMALAŞDIRILMASINDA İSTİFADƏ OLUNAN ÜSUL VƏ VASİTƏLƏR	348
Aysel Hüseynova. UŞA-QARABAĞIN MƏDƏNİ İNCİSİ	353
Hüseynova Fatimə. AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK XALÇALARI	359
Zülfıqarova Aytən. ÇÖVKƏN OYUNU	367
Abbosova Mubina. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - TURKIY MADANIYAT TARG'IBOTCHISI	371

